

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***70410503 – Investisiyalarni boshqarish magistratura  
mutaxassisligining***

***MALAKA TALABI***

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “01” 08 dagi 277 – sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

**MUNDARIJA**

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>8</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>9</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>10</b>
<b>5.</b>	<b>Bibliografik ma’lumotlar .....</b>	<b>11</b>
	<b>Kelishuv varag‘i.....</b>	<b>12</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70410503 – Investisiyalarni boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistraturalar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 70410503 – Investisiyalarni boshqarish magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

70410503 – Investisiyalarni boshqarish iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli vazirliklar va tashkilotlarda; O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi va uning hududiy boshqarmalarida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning hududiy boshqarmalarida; tijorat banklari va ularning hududiy filiallarida; lizing kompaniyalari va ularning hududiy filiallarida; nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida investisiya faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlari va sohasini rivojlantirishga, istiqbolini

belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida;

O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar, savdo va sanoat vazirligi va uning hududiy boshqarmalari;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning hududiy boshqarmalari;

vazirlik, qo'mita va idoralarning tegishli investisiya bo'limlari;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari, investisiya boshqarmalari;

turli mulkchilikka asoslangan moliya-kredit muassasalarini;

iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi firma, kompaniya, xolding va ishlab chiqarish birlashmalari investisiya faoliyatini boshqarish;

turli mulk shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini.

aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, auditorlik tashkilotlari, sug'urta tashkilotlari, investitsiya muassasalarini va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda kompleks masalalarni yechish.

70410503 – Investisiyalarni boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar fan sohasida magistratura mutaxassisligini tamomlagandan so'ng oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan bog'liq kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy tadqiqot faoliyati;*
- *pedagogik faoliyat;*
- *moliyaviy-iqtisodiy faoliyat;*
- *hisob, tahlil va nazorat faoliyati;*
- *huquq-tartibot faoliyati;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70410503 – Investisiyalarni boshqarish mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'yektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashv etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatasion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

**Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:**

investisiya loyihalarining biznes-rejasi (texnik-iqtisodiy asosnoma yoki texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar) ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish uchun zarur dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash;

moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini (matematik modellashtirish, ekonometrik prognozlash, ekspert baholari, trendlar va ssenariylarni tayyorlash, stoxastik usullar) qo'llash;

kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha qo'yilgan masalalarni hal qilish uchun zarur statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish;

hisob-kitoblarni tahlil qilish va o'z yechimini asoslash, moliyaviy va iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun turli vositalardan foydalanish;

moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarning tavsifi asosida nazariy va ekonometrik standart modellarini yaratish, ulardan olingan natijalarni tahlil qilish va izohlash;

xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish;

moliyaviy rejalashtirish va prognozlash uchun buxgalteriya, moliyaviy va boshqa axborotlarni tahlil qilish va sharhlash;

investisiya loyihasining rejaga nisbatan o'zgarish dinamikasi va tendensiyalarini tahlil qilish;

investisiyalarni boshqarish bo'yicha xalqaro tajribalarni tahlil qilish;

taqdim etilgan loyihalarning moliyaviy samaradorligini baholash, ularning moliyaviy-iqtisodiy natijalarini tahlil qilish;

ilmiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyati muammolarini chuqur tahlil qilish, masalalarni qo'yish va asoslash;  
ilmiy-amaliy loyihalar, biznes-rejalarni ishlab chiqish va optimallashtirish.

**Huquq-tartibot faoliyatida:**

investisiya faoliyatiga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olish;

shaxsning inson, jamiyat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish;

o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Investisiyalar va investisiya faoliyati to'g'risida"gi, "Investisiya va pay fondlari to'g'risida"gi qonunlari hamda boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana olish;

jamiyat, davlat va shaxs hamda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy ta'minoti, turli mulk shakllarini qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash.

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

investisiya faoliyatini tashkil qilish va boshqarish jarayonlarini rejalashtirish, investisiya risklarini tahlil qilish va optimallashtirish, investisiya faoliyati ishtirokchilarini boshqarish;

ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimi ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

investisiya loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish, amalga oshirish va monitoring qilishda ishtirok etish;

ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish va monitoringini olib borish;

fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish;

loyihalar iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash;

investisiya loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish va nazorat qilish;

investisiya risklarini tahlil qilish va boshqarish;

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga innovasion ishlanmalarni joriy etish;

investisiya faoliyatini tahlil qilish va rivojlanishini prognoz qilishda magistr ixtisosligiga mos mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;

investisiya bozori rivojlanishining tahliliy sharhini ishlab chiqish;

investisiya sohasida konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, iqtisodiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovasion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

investisiya faoliyatini tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanish, metodlarni tasniflash, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

xorijiy tillarning biridan ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida foydalana olish;

loyihalarni moliyalashtirish manbalarini shakllantirish va ularning qiymatini baholash;



loyiha bo'yicha sifat menejmenti hamda loyihani boshqarishni tashkil etish;  
investisiya loyihalari bo'yicha umumiy xarajatlari tarkibini aniqlash, loyiha qiymatini boshqarish;

kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha qo'yilgan masalalarni hal qilish uchun zarur statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish;

moliyaviy rejalashtirish va prognozlash uchun buxgalteriya, moliyaviy va boshqa axborotlarni tahlil qilish va sharhlash;

loyiha risklarini tahlil qilish va boshqarish;

iqtisodiy-tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan va texnik vositalardan foydalanish;

loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash;

loyiha bo'yicha atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi jihatidan ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy-tadqiqot va amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:

1. Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti;
2. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash.

## 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	ITM1105	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.02	MFO'M1105	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	150	5	1
1.03	LM1105	Loyihaviy moliyalashtirish	150	5	1
1.04	KB1105	Korporativ boshqaruv	150	5	1
1.05	ILB1205	Investisiya loyihalarini boshqarish	150	5	2
1.06	ILE1205	Investisiya loyihalari ekspertizasi	150	5	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>2,3</b>
<b>2.00</b>		Tanlov fanlar	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>2,3</b>
	<b>Kvalifikatsiya</b>	<b>Iqtisodchi, Investitsiya loyihalarini boshqaruvchi (pedagog-tadqiqotchi)</b>			
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1,2,3,4
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasi	1200	40	1,2,3,4
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'yekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, investisiyalar, investisiya faoliyati, investisiya jarayoni, investisiya risklari, investisiyalarni boshqarish, investisiya strategiyasi, investisiya loyihasini moliyalashtirish, loyihalarni boshqarish, loyiha konsepsiyasi, loyiha biznes-rejasi, loyiha qiymati, loyihani ishlab chiqish rejasi, loyihaning sifat menejmenti, loyiha ekspertizasi, loyihaviy tahlil, marketing, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQLIGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Rektor: T.Z. Teshabayev

2024 yil "06" \_\_\_\_\_



M.O'.

**KELISHILDI:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor M. Boltabayev

2024 yil "06" \_\_\_\_\_

M.O'.



"Agrobank" aksiyadorlik tijorat  
banki Boshqaruv raising birinchi

o'rinbosari

E. Kaxorov

2024 yil "19" "06" \_\_\_\_\_

M.O'.



O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar,  
sanoat va savdo vazirligi huzuridagi  
Xorijiy investitsiyalarni jalb  
etish agentligi

Direktor v.v.b. O. Elmuratov

2024 yil "20" "06" \_\_\_\_\_

M.O'.

"IPri ce" MCHJ direktori

A. Shomirov

2024 yil "20" "06" \_\_\_\_\_

M.O'.

